Keywords: paralympic sports, development challenges, accessible infrastructure, funding and sponsorship, talent identification, equipment and technology, training and coaching, athlete support services

Introduction.

The development of Paralympic sports has made significant strides over the years, promoting inclusivity, empowerment, and opportunities for athletes with disabilities. Paralympic sports are designed specifically for individuals with physical, sensory, or intellectual impairments, providing them with a platform to compete at the highest level of athletic competition. The Paralympic Movement originated in the aftermath of World War II when injured veterans sought ways to participate in sports as part of their rehabilitation. It has since grown into a global phenomenon that showcases the remarkable capabilities and achievements of athletes with disabilities.

One of the key milestones in the development of Paralympic sports was the establishment of the International Paralympic Committee (IPC) in 1989. The IPC acts as the governing body for the Paralympic Movement, overseeing the organization of the Paralympic Games and promoting the development of Paralympic sports worldwide. The Paralympic Games, held every four years, serve as the pinnacle of competition for Paralympic athletes. The event has gained increasing recognition and support, with growing numbers of participants, spectators, and media coverage. The Games provide a platform for athletes to showcase their skills and inspire others through their remarkable achievements.

МЕДИЦИНА, ПЕДАГОГИКА И ТЕХНОЛОГИЯ: ТЕОРИЯ И ПРАКТИКА

Том 1, Выпуск 4, 30 Декабря

Over the years, the range of Paralympic sports has expanded significantly, offering a diverse range of disciplines and events. Paralympic sports include but are not limited to athletics, swimming, wheelchair basketball, wheelchair rugby, para-cycling, para-rowing, para-canoeing, wheelchair tennis, and many others. These sports have specific classifications to ensure fair competition, grouping athletes based on their impairment type and severity. Technological advancements have also played a significant role in the development of Paralympic sports. Adaptive equipment, such as prosthetics, specialized wheelchairs, and assistive devices, has enabled athletes to reach new levels of performance and break barriers. Advances in sports science, training techniques, and coaching methods have further enhanced the development of Paralympic athletes and their overall performance.

This article adopts a comprehensive literature review approach to identify and analyze the actual problems faced by Paralympic sports. Relevant academic journals, scholarly articles, reports, and official publications were extensively reviewed to gather insights into the identified issues.

❖ *Inclusion* - the first actual problem in the development of Paralympic sports is achieving true inclusion. While significant progress has been made, further efforts are required to ensure equal opportunities, resources, and participation for athletes with disabilities. Ensuring accessibility to sporting facilities, training programs, and competitions for all disability groups is crucial.

❖ *Accessibility* - the second challenge lies in providing accessible infrastructure and facilities. From designing accessible stadiums to implementing inclusive transportation systems, ensuring equal access for athletes, spectators, and officials with disabilities is essential. Enhancing accessibility will encourage more people with disabilities to participate and engage with Paralympic sports.

❖ *Funding* - insufficient funding poses a significant hurdle in the development of Paralympic sports. Adequate financial support is required to enhance coaching programs, athlete development, training facilities, and equipment. Collaborative efforts between governments, private sponsors, and sports organizations are crucial in securing sustainable funding for Paralympic sports.

❖ *Classification* - the classification system in Paralympic sports needs continuous improvement to maintain fairness and transparency. Athletes are classified based on their impairments, ensuring fair competition within specific

МЕДИЦИНА, ПЕДАГОГИКА И ТЕХНОЛОГИЯ: ТЕОРИЯ И ПРАКТИКА

Том 1, Выпуск 4, 30 Декабря

categories. However, ongoing research and development are necessary to address challenges such as intentional misrepresentation and classification controversies.

❖ *Media Coverage* - the fifth problem revolves around media coverage and public awareness. Enhancing the visibility of Paralympic sports through comprehensive media coverage, storytelling, and highlighting athletes' achievements can increase public interest and engagement. Increased media attention can attract sponsors, drive funding, and break down societal barriers.

Addressing these actual problems requires a multi-faceted approach. Collaboration between Paralympic committees, governments, sports organizations, disability rights advocates, and the media is crucial. Initiatives to enhance inclusion, improve accessibility, secure sustainable funding, refine classification systems, and promote extensive media coverage should be prioritized.

The development of Paralympic sports has come a long way, transforming the landscape of adaptive sports and providing athletes with disabilities a platform to excel. The development of Paralympic sports faces several actual problems, including inadequate infrastructure, limited funding, social attitudes, classification systems, and athlete support. By addressing these challenges, we can create a more inclusive and equitable environment for Paralympic athletes to excel. Collaboration among governments, sporting organizations, corporate sponsors, and the community is vital in overcoming these barriers and promoting the growth of Paralympic sports. Through ongoing efforts to promote inclusivity, advance technology, and expand opportunities, Paralympic sports continue to evolve and inspire millions of people around the world.

References:

- 1) International Paralympic Committee (IPC). (2023). About the IPC. Retrieved from <https://www.paralympic.org/about-us>
- 2) International Paralympic Committee (IPC). (2023). The History of the Paralympic Movement. Retrieved from <https://www.paralympic.org/the-ipc/history>
- 3) International Paralympic Committee (IPC). (2023). Classification. Retrieved from <https://www.paralympic.org/the-ipc/history>

МЕДИЦИНА, ПЕДАГОГИКА И ТЕХНОЛОГИЯ: ТЕОРИЯ И ПРАКТИКА

Том 1, Выпуск 4, 31 Декабря

*LATHYRUS SATIVUS L. TURIGA MANSUB XORIJIY
NAMUNALARINING PISHISH BOSQICHIDA KUZATILGAN UMUMIY
BIOMASSA TAHLILI*

АНАЛИЗ ОБЩЕЙ БИОМАССЫ НА СТАДИИ СОЗРЕВОСТИ
ЗАРУБЕЖНЫХ ОБРАЗЦОВ *LATHYRUS SATIVUS L. SPECIES*

ANALYSIS OF TOTAL BIOMASS AT THE MATURITY STAGE OF
FOREIGN SAMPLES OF *LATHYRUS SATIVUS L. SPECIES*

Qodirova Saodat Saidmurodovna

O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Genetika va o‘simliklar
eksperimental biologiya instituti tayanch doktoranti, qsaodat71@gmail.com

Кадырова Саодат Саидмуродовна

Докторант Института генетики и экспериментальной биологии растений
Академии наук Республики Узбекистан, qsaodat71@gmail.com

Kadyrova Saodat Saidmurodovna

Doctoral student of the Institute of Genetics and Experimental Plant Biology
of the Academy of Sciences of the Republic of Uzbekistan, qsaodat71@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada *Lathyrus sativus L. turiga mansub xorijiy namunalari va mahalliy oddiy no‘xat navlarida umumiy biomassa ko‘rsatkichlari tahlil qilindi. Xorijiy namunalardan prateekxIG 140035 namunasida biomassa miqdori ortganligi ijobiy holat ekanligi qayd etildi.*

Резюме: В статье проанализированы показатели общей биомассы зарубежных образцов *Lathyrus sativus L.* и отечественных сортов гороха обыкновенного. Среди зарубежных образцов отмечено, что увеличение количества биомассы в образце prateekxIG 140035 является положительным условием.

Abstract: In this article, total biomass parameters were analyzed in foreign specimens of *Lathyrus sativus L.* and domestic common pea varieties. Among the foreign samples, it was noted that the increase in the amount of biomass in the prateekxIG 140035 sample is a positive condition.

Kalit so‘zlar: biomassa, urug‘, dukkak, nav, variatsiya, azot, kolleksiya.

Kirish.

МЕДИЦИНА, ПЕДАГОГИКА И ТЕХНОЛОГИЯ: ТЕОРИЯ И ПРАКТИКА

Том 1, Выпуск 4, 31 Декабря

Xashaki no'xat (*Lathyrus sativus* L.) bir yillik salqin mavsumda o'sib ko'payadigan dukkakli ekin hisoblanadi. Turli mintaqalarda jumladan Janubiy Osiyo, Sahroi Kabir, Janubiy Afrika va O'rta Yer dengizi mintaqalarining noqulay (stressga) iqlim sharoitiga chidamli ekin turidir. Ko'p hollarda xashsaki no'xat dehqonchilik tizimida sholi ekinidan oldin yoki navbat bilan bilan bir qatorda ekiladi.

Lathyrus sativus L. turi *Fabaceae* oilasiga mansub o'simlik bo'lib, Osiyo va Sharqda inson iste'moli va chorva uchun ozuqa sifatida keng o'stiriladi [1]. *Lathyrus sativus* L. tarkibida 28 % dan 32 % gacha oqsil va muhim aminokislotalar mavjud [3].

Tadqiqot natijalari.

Tadqiqotlarimiz O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Genetika va o'simliklar eksperimental biologiyasi institutining o'quv tajriba xo'jaligida dala tajribalari o'tkazildi. Tajribada ob'ekt sifatida Xashaki no'xat (*Lathyrus sativus* L.) turiga mansub xorijiy kolleksiya namunalaridan (Bio 520 x Bio) x273a, PratekxIG 140034a, Ratanx 2125, Jabbouleh, 1330 x 2125, Ratanx 1307, Ratanx IG 135481, (Bio 520 x Bio) x 273b, PratekxIG 140034b, Bio 520x1330 va qiyosiy tahlil uchun oddiy no'xatning Lalmikor va Polvon navlaridan foydalanildi.



Tadqiqot uchun tanlab olingan xashaki no'xat namunalarning biomassasini aniqlashda pishish fazasida o'simlikning butun hajmi (ildizi, poyasi, barglari,

МЕДИЦИНА, ПЕДАГОГИКА И ТЕХНОЛОГИЯ: ТЕОРИЯ И ПРАКТИКА

Том 1, Выпуск 4, 31 Декабря

dukkaklari) bilan yerdan ajratgan holda og'irligini o'lchash orqali bitta o'simlikning umumiy biomassasi o'rganildi (1-jadval).

1-jadval

Lathyrus sativus L. turiga mansub xorijiy kolleksiya namunalarining umumiy biomassasi (gramm)

№	Namunalar nomi	$x \pm s \bar{x}$	Limit	S	V %
1	Bio 520 x Bio??)x273	69,0±1,6	67,1-72,2	2,8	4,09
2	prateekxIG 140034	67,9±4,3	63,2-76,7	7,5	11,1
3	Ratanx2125	68,8±5,2	60,2-78,3	9,0	13,1
4	Jabbouleh	53,3±1,8	49,6-55,3	3,2	6,0
5	1330x2125	80,4±4,9	70,8-86,1	8,4	10,5
6	Ratanx1307	71,9±3,9	67,7-79,9	6,8	9,5
7	RatanxIG 135481	69,6±5,1	65,0-79,8	8,8	12,7
8	Bio 520 x Bio??)x274	85,6±2,3	82,6-90,2	4,0	4,7
9	prateekxIG 140035	90,3±3,8	83,2-96,3	6,6	7,3
10	Bio 520x1330	86,3±3,8	79,9-93,2	6,6	7,7
11	Lalmikor	52,9±1,5	50,9-55,9	2,6	4,9
12	Polvon	56,2±3,2	53,3 -62,7	5,6	9,9

O'simlikning biomassasini aniqlash jarayonida eng yuqori ko'rsatkichni PrateekxIG 140035 namunasida 90,3 grammni tashkil etdi. va eng past ko'rsatkich Jabbouleh namunasida 53,3 gr ni tashkil qildi, hamda nazorat uchun tanlab olingan navlarda eng yuqori ko'rsatkichni Polvon navida 56,2 gr eng past ko'rsatkichni Lalmikor navida 52.9 gr ni tashkil qilganligi aniqlandi.

Xulosa qilib aytish mumkinki xashaki no'xat o'simligi biomassasi chorvachilikda oziqaviy ahamiyati juda muhim ekanligini ko'rish mumkin.

МЕДИЦИНА, ПЕДАГОГИКА И ТЕХНОЛОГИЯ: ТЕОРИЯ И ПРАКТИКА

Том 1, Выпуск 4, 31 Декабря

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Ramakrishna V., Rajasekhar S., Reddy LS. Identification and purification of metalloprotease from dry grass pea (*Lathyrus sativus* L.) seeds // Appl Biochem Biotechnol. 2010, P. 160.

2. Qodirova S.S., Amanov B.X., Samatov A.Q. *Lathyrus sativus* L. Xorijiy namunalarida o'simlik bo'yining shakllanishi // Zamonaviy biologiyaning dolzarb muammolari, yechimlari, istiqbollari va o'qitishda fan-ta'lim integratsiyasi xalqaro ilmiy-amaliy konferentsiyasi. 2023, B. 287-288.

3. Urga K., Fufa H., Biratu E., Husain A. Proximate composition, minerals, β -value of *Lathyrus sativus* grown in Ethiopia. ODAF and anti-nutritional components// African J Food, Agric Nutr. Dev. 2005. P. 1-15.

МЕДИЦИНА, ПЕДАГОГИКА И ТЕХНОЛОГИЯ: ТЕОРИЯ И ПРАКТИКА

Том 1, Выпуск 4, 31 Декабря
TYPES OF CLOUD TECHNOLOGY

Sadritdinova Dinora Azamjon qizi

Graduate student of Navoi State Pedagogical Institute

ANNOTATION

This article details the creation of cloud technologies, the evolution process, and more. In addition, the advantages and disadvantages of using cloud technologies are analyzed.

Key words: : information technology, server services, Internet, cloud technology, cloud computing, personal computer, infrastructure.

INTRODUCTION

Over the past decade, the telecommunications industry has taken an important place in ensuring the growth of labor productivity and introducing new technologies. In the future, in various sectors of the national economy and economy, the basic infrastructure - e-commerce or the Internet will be used in the desired amount, and the wide-ranging introduction of various opportunities, this sector will encourage the formation of a new economy and the structure of the economy. It is undoubtedly becoming an important phenomenon as a catalyst for radical change. In the era of rapid development of information technologies, the role of software is very important. A personal computer must meet the minimum system requirements for the program to work properly. The Internet was modernized and server equipment was developed. At the same time, there was an idea to combine computing systems and use it as a single resource in using the program. Since 2008 (Cloud technology), the word "Cloud technology" has spread widely around the world. At first glance, "Cloud technologies" seem incomprehensible: this model allows quick, convenient, efficient use of a system (servers, applications, storage systems and services) [1].

Main. Not all clouds are the same, and one type of cloud computing is not right for everyone. Various models, types and services have emerged to offer the right solution to people's needs. There are three ways to deploy cloud services: Public, private, private cloud, or hybrid cloud.

Public clouds are owned and managed by third-party cloud service providers, such as servers and Internet storage. Microsoft Azure is an example of a public cloud. With public cloud, all hardware, software, and other supporting infrastructure are managed by the cloud provider. Users can access these services and manage their accounts using a web browser.

A private cloud refers to cloud computing resources used only by a single enterprise or organization. A private cloud can physically exist in a company's data

МЕДИЦИНА, ПЕДАГОГИКА И ТЕХНОЛОГИЯ: ТЕОРИЯ И ПРАКТИКА

Том 1, Выпуск 4, 31 Декабря

center. Some companies also pay third-party service providers to host their private cloud. A private cloud is where services and infrastructure are stored on a private network.

In the development of mobile applications, cloud technology combines public and private clouds connected by technology that allows the mutual sharing of data and applications. By allowing data and applications to move between private and public clouds, a hybrid cloud gives businesses greater flexibility, additional deployment options, and helps optimize existing infrastructure, security, and compliance. Currently, the following types of clouds are distinguished:

1. Private clouds (private), which serve one organization, support it or are supported by a third-party company and are located on the territory of the organization or outside it. Subscribers are corporate offices and divisions, business partners, suppliers of raw materials, sellers, production chain participants and other organizations. Protected by the firewall, do not go outside the closed internal network, a high level of protection is provided;

2. Group clouds (community) distributed among several organizations united by common interests (service and location do not differ in private clouds);

3. Public or community clouds (public) provided to organizations or individuals based on the cloud provider's infrastructure. Any company and individual user can subscribe to the offered services. They offer an easy and inexpensive way to store and host websites or databases, and large-scale capabilities not available in other solutions;

4. Hybrid clouds combine the above in any combination, such as providing open and transparent services. allows using less hardware resources than required from the hardware capabilities allocated to one consumer, and due to the automation of modification procedures, resource allocation is significantly reduced. From the consumer's point of view, these features enable high service availability and low risk of downtime, and rapid scalability due to the flexibility of the computer system without the need to build, maintain, or upgrade a PC infrastructure. Ease of access and universality ensure the wide availability of services at scale. The convenience and universality of access is ensured by the wide availability of services and the support of various classes of terminal devices (personal computers, mobile phones, Internet tablets).

CONCLUSION

Using cloud technologies, computer system resources are protected based on innovative technologies of "collective intelligence". Antivirus servers can use data

МЕДИЦИНА, ПЕДАГОГИКА И ТЕХНОЛОГИЯ: ТЕОРИЯ И ПРАКТИКА

Том 1, Выпуск 4, 31 Декабря

from Panda antivirus products from millions of users around the world to automatically detect and classify new types of malware that appear every day.

REFERENCES

1. Amirov D.M, Atajonov A.Y, Ibragimov D.A, Rakhimjonov Z.Y, Saidkhojayev S.S. "Annotated Dictionary of Information - Communication Technologies" UNDP Office in Uzbekistan, 2010.
2. Kruk B.I. Telecommunication system set. Modern technologist. M: Goryachaya line - Telecom 2003.
3. Juha Korhonen. Introduction to 3G Mobile Communications. Second Edition 2003.
4. http://vww.snevs.ru/revevs/nev/cloud_services_2013/articles/protection_stealing_the_cloud_environment_new_security_technologies.
5. B. Walker Seidenberg M. P. Althoff. UMTS The Fundamentals. All of Communications Networks, Aachen University (RWTH), Germany Translated by Hedwig Jourdan von Schmoeger, UK 2003.
6. Babkov Yu.D. "Mobile communication systems." 2000 year.
7. Radiotexnicheski sistem Education. for universities according to special needs. "Radiotexnika"

МЕДИЦИНА, ПЕДАГОГИКА И ТЕХНОЛОГИЯ: ТЕОРИЯ И ПРАКТИКА

Том 1, Выпуск 4, 30 Декабря

**Hozirgi zamon jamiyatining global muammolari va jamiyatni
rivojlantirish istiqbollari**

Ròziboyeva Maftuna

Maxmaraimova Parvina

Toğaymurodova Aziza

Raxmonova Madina

Annotatsiya: Insoniyat azal-azaldan jamoa bo'lib yashaydi. Yer sayyorasi uning abadiy makoni, umumiy Vatanidir. Quyosh tizimidagi ana shu mitti sayyorada yashayotgan odamlar oilasini jamiyat deb atash odat tusiga kirgan. Demak, umumbashariy ma'noda jamiyat odamzodning umri, hayoti o'tgan hamma davri, joy va hududi bilan bog'liq barcha o'zgarish va jarayonlarni ifoda etadi. Shu bilan birga, biror davlat hududidagi odamlar hayoti, sivilizatsiyaning muayyan davrlaridagi turmushiga nisbatan ham ushbu tushuncha qo'llanadi. Har qanday holda ham, u umumiy tushuncha bo'lib, ayrim odam va alohida shaxs jamiyat a'zosi deb ataladi.

Kalit so'zlar: *umumbashariy, mintaqaviy va mahalliy muammolar tushunchalari; energetika masalalari, oziq-ovqat muammosi, demografiya; ekologiya; ekologik tanazzul*

Har bir jamiyatning o'z qiyofasi, tuzilishi, tarkibiy qismlari mavjud bo'lishi tarixiy zaruratdir. Muayyan jamiyat hayotiga xos bo'lgan yashash va taraqqiy etish sohalarining ham o'ziga xos xususiyatlari bor. Bu masalani o'rganish ayniqsa dunyo hamjamiyati va O'zbekiston hayotida tub o'zgarishlar ro'y berayotgani hozirgi davrda muhim ahamiyat kasb etmoqda. Jamiyat bilan bog'liq masalalar azaldan ko'plab mutaxassislarning diqqatini tortib keladi. Fan tarixida bu mavzuga doir lurlicha qarashlar, g'oyalar va ta'limotlar mavjud. Bu masalalar qadimgi avlodlarimizdan qolgan «Avesto» va «O'rxun-Yenesey tosh bitiklari» da, Al-Xorazmiy, Al-Buxoriy, Al-Beruniy, Najmiddin Kubro, Mirzo Ulug'bek, Alisher Navoiy, Bobur va boshqa allomalarimiz merosida yorqin ifodasini topgan. Sharq

МЕДИЦИНА, ПЕДАГОГИКА И ТЕХНОЛОГИЯ: ТЕОРИЯ И ПРАКТИКА

Том 1, Выпуск 4, 30 Декабря

siyosatshunosligida jamiyat bilan bog'liq masalalar Konfutsiy, Kaykovus, Nizomulmulk, Mirxond, Xondamir, Sharafiddin Ali Yazdiy kabi ko'plab allomalar ijodidan o'rin olgan. Ijtimoiy taraqqiyot davomida jamiyat to'g'risidagi qarashlar, g'oyalar va ta'limotlar rivojlanib takomillashib borganligini, xususan vatandoshimiz Abu Nasr Forobiyning ijtimoiy-falsafiy qarashlari tizimida hamda Amir Temur va temuriylar sulolasining jamiyat rivoji masalalariga oid nazariy va amaliy jihatdan yondashganligida ko'rish mumkin. Xususan, «Temur tuzuklari»da qayd etilgani kabi: «... saltanat qurish, davlat tutish ishlarini bir tuzukka bog'ladim va saltanatni boshqarish haqida qo'llanma (dasturulamal) yozib qoldirdim, toki farzandlarim va avlodimdan bo'lganlarning har biri unga muvofiq ish yuritsin, mehnatu mashaqqatlar, ko'p harbiy yurishlar, urush-talashlar bilan, Tangrining inoyati va hazrati Muhammadning, unga Tangrining marhamatlari va salomlari bo'lsin, tolei baland millatning sharofati, onhazratning ulug'vor avlodi va qimmatli sahobalariga qilgan muhabbat va do'stligim orqali qo'lga kiritgan saltanatni saqlagaylar». Shuningdek, mazkur mavzuga Ahmad Donish, Behbudiy, Abdulla Avloniy kabi mutafakkirlarimiz ijodida ham alohida ahamiyat berilgan.

Hozirgi davrda ham ushbu masalaga doir ko'plab kitoblar, risolalar va qo'llanmalar chop etilmoqda. Ta'kidlash lozimki, jamiyatning mohiyatini, tuzilishini, qonuniyatlarini bilish, ularga tayangan holda boshqaruv va rahbarlik faoliyatini tashkil etish muhim ahamiyat kasb etadi. Shuning uchun «Jamiyat» tushunchasi, uning mazmun-mohiyati, tuzilishi, ijtimoiy qonunlar — jamiyat taraqqiyoti va islohotlar jarayonini bilishda muhim omil sifatida namoyon bo'ladi. Bu borada Sharq va G'arb falsafasidagi jamiyatga doir ayrim xususiyatlar, umumiy mushtarak nuqtalar, unda shakllangan va qaror topgan g'arbona va sharqona qadriyatlar, shaxs erkinligi, individuallik va jamoaviylik uyg'unligi kabi hodisalarning mohiyati nihoyatda muhim. Hozirgi zamonda jamiyatga doir plyuralizm hamda sinergetik qarashlarning uning taraqqiyoti qonuniyatlarini bilish orqali ijtimoiy jarayonlarni ilmiy tashkil etishdagi ahamiyatiga alohida e'tibor berish lozim.

Jamiyat — tabiatning bir qismi, ya'ni ijtimoiy borliq bo'lib, odamlar uyushmasining maxsus shakli, kishilar o'rtasida amal qiladigan ko'plab munosabatlar yig'indisi, degan turlicha ta'riflar ham bor. Jamiyat muttasil ravishda rivojlanuvchi, takomillashib boruvchi murakkab tizimdir. Har bir yangi davrda jamiyat mohiyatini bilish zarurati vujudga keladi. Jamiyat moddiy va ma'naviy omillar birligidan iborat. Hozirga qadar adabiyotlarda moddiy va ma'naviy hayot

МЕДИЦИНА, ПЕДАГОГИКА И ТЕХНОЛОГИЯ: ТЕОРИЯ И ПРАКТИКА

Том 1, Выпуск 4, 30 Декабря

bir-biridan keskin farqlanar edi. Holbuki, jamiyatning tub mohiyati uni tashkil etuvchi inson mohiyati bilan uzviy bog'liq. Xuddi inson tanasini uning ruhidan ajratib bo'lmagani singari, jamiyatning moddiy va ma'naviy jihatlarini ham bir-biridan ajratish va ularning birini ikkinchisidan ustun qo'yish mantiqqa zid. Shuning uchun ham hozirgi davrda xalq ma'naviyatini yuksaltirishga, milliy g'oya va mafkura asoslarini mustahkamlashga katta e'tibor berilyapti. Zero, kishilar iqtisodiy jihatdan qashshoq bo'lgani uchun ilmsiz bo'lmaydi, balki, aksincha — ilmsiz bo'lgani uchun qashshoq bo'lishi mumkin. Shuning uchun yurtimizda xalq ma'naviyatini yuksaltirish orqali iqtisodiy farovonlikni ta'minlashga katta e'tibor berilyapti, Ijtimoiy munosabatlarning amal qilish jarayonida odamlarni uyushtirishning tarixiy shakllari — oila, davlat, jamoa (qishloq, shahar) vujudga kelgan. Odamlar o'rtasida amal qiladigan axloqiy, diniy, ilmiy, falsafiy, huquqiy, iqtisodiy, mafkuraviy kabi munosabatlarning barchasi, bir so'z bilan, ijtimoiy munosabatlar deyiladi. Ijtimoiy uyushmalar kishilarning moddiy va ma'naviy ehtiyojlarini qondirishga yordam beradi. Ular mohiyatan inson va jamiyat mavjudligining zarur sharti hisoblanadi. Masalan, oila, davlat, ta'lim-tarbiya, mahalla, Vatan kabi qadriyatlarisiz inson va jamiyat o'z mohiyatini yo'qotadi.

Jamiyatning moddiy-ma'naviy hayoti. Insonning moddiy ehtiyojlari oziq-ovqatlar, kiyim-kechak, uy-joy, transport vositalari, o'zini himoyalash, zurriyot qoldirish kabilardan iboratdir. Ma'naviy ehtiyojlarga olamni bilish, o'zlikni anglash, dunyoqarash, donishmandlikka intilish, bilim, san'at, g'oya, mafkura, go'zallik, ma'naviy kamolot yo'lidagi intilishlar kiradi. Insonning asl mohiyati moddiy ehtiyojlarni madaniy shakllarda qondirishida yaqqol namoyon bo'ladi. Inson aqlli mavjudot sifatida moddiy ehtiyojlarini madaniy shakllarda qondirish uchun tabiat va jamiyat mohiyatini bilishga, moddiy va ma'naviy olamni uyg'unlashtirishga, tabiat va jamiyatni o'z maqsadlariga mos ravishda o'zgartirishga harakat qiladi. Ilm-fan va texnika insonning ma'naviy va moddiy ehtiyojlarini qondirish quroli, muhim vositasi bo'lib xizmat qiladi. Inson yuksak ma'naviyat tufayligina o'z ehtiyojlarini madaniy shakllarda oqilona va to'laroq qondirish imkoniga ega bo'ladi. Jamiyatning moddiy va ma'naviy hayoti kishilarning moddiy va ma'naviy ehtiyojlari bilan uzviy bog'liq holda vujudga keldi. Jamiyatning moddiy hayotiga quyidagilar kiradi: — kishilarning yashashi, shaxs sifatida kamol topishi uchun zarur bo'lgan iqtisodiy shart-sharoitlar; — oziq-ovqat, kiyim-kechak, turar joy, yoqilg'i, kommunikatsiya vositalari; — moddiy ne'matlar ishlab chiqarish, taqsimlash, ayirboshlash va iste'mol qilish; — ishlab chiqarish

МЕДИЦИНА, ПЕДАГОГИКА И ТЕХНОЛОГИЯ: ТЕОРИЯ И ПРАКТИКА

Том 1, Выпуск 4, 30 Декабря

jarayonida kishilar o'rtasida amal qiladigan iqtisodiy munosabatlar majmuyi; — moddiy boyliklar, tabiiy zaxiralar. Jamiyatning ma'naviy hayotiga olamni tushunish, jamiyat va inson to'g'risidagi qarashlar, nazariyalar, ta'limotlar, g'oyalar, 149 mafkura, ijtimoiy ong shakllari, ta'lim-tarbiya, axborot vositalari, madaniyat, ilm-fan muassasalari va boshqalar kiradi. Jamiyatning moddiy va ma'naviy hayotini boshqarish, kishilar o'rtasidagi munosabatlarni tartibga solishda turli siyosiy institutlar (davlat, siyosiy partiyalar, tashkilotlar, turli uyushmalar) muhim o'rin tutadi. Jamiyatni boshqarishning siyosiy-huquqiy jihatlari ham muhim. Kishilar tomonidan siyosiy va huquqiy bilimlarning chuqur o'zlashtirilishi jamiyatning barqaror yashashi hamda rivojlanishida muhim ahamiyat kasb etadi. Jamiyat rivoji, kishilarning moddiy va ma'naviy ehtiyojlari qondirilishida mehnat, mulk va mehnatning ijtimoiy taqsimlanishi beqiyos ahamiyatga ega. Mehnatni kishilarning qobiliyatiga qarab ijtimoiy taqsimlanishi natijasida muayyan kasb-kor bilan shug'ullanadigan toifalar, guruh, qatlam va sinflar vujudga keladi, ular jamiyat strukturasi o'ziga xos o'rin egallaydi, jamiyat taraqqiyotiga muayyan hissa qo'shadi. Jamiyat va oila. Jamiyat va oila mohiyatan bir-biri bilan uzviy bog'liq. Oilada jamiyatning tub mohiyati o'z aksini topadi. Shu ma'noda, oilani kichik jamiyat deyish mumkin. Har bir jamiyat a'zosi oila bag'rida voyaga yetadi, ijtimoiy munosabatlarni o'zlashtiradi va insoniy fazilatlarni namoyon etadi. Barkamol insonni shakllantirish, uni hayotga, mehnatga tayyorlash oilaning muqaddas vazifasidir. Oilani mustahkamlash jamiyat barqarorligi va qudratining muhim shartidir. Shu boisdan ham davlat oilani o'z himoyasiga oladi. Jamiyatdagi ma'naviy-axloqiy muhitning sog'lomligi ko'p jihatdan oilaviy madaniyatga bog'liq. Oila qanday bo'lsa, jamiyat ham shunday bo'ladi.

Oilada er va xotinning mavqei, oilaviy munosabatlar xarakteri turli xalqlarda turlicha. Mamlakatimizda milliy mustaqillik yillarida ma'naviyat sohasida amalga oshirilayotgan islohotlar, avvalo, oila qadriyatlarini, eng ilg'or an'analarni tiklashga qaratilgan. Ona va ayol muqaddasligi o'zbekona qadriyatdir. Hadisi sharifda ona va ayolning muqaddasligi to'g'risidagi g'oyalar oilaviy munosabatlarni takomillashtirishda muhim ahamiyatga ega. Ulug' mutafakkirlar jamiyatning madaniy darajasi ayolning jamiyat va oiladagi ahvoli, mavqei bilan belgilanishini alohida 150 la'kidlagan. Sog'lom, barkamol avlod tarbiyasi ko'p jihatdan ayolning ma'naviy salohiyati, bilimi, uddaburonligi va erkinligiga bog'liq. Mamlakatimizda keyingi yillarda amalga oshirilayotgan qator tadbirlar ayolning oila va jamiyatdagi mavqei hamda rolini kuchaytirishga qaratilgan. Oila muammolarini ilmiy asosda

МЕДИЦИНА, ПЕДАГОГИКА И ТЕХНОЛОГИЯ: ТЕОРИЯ И ПРАКТИКА

Том 1, Выпуск 4, 30 Декабря

o'rganish, ularni oqilona hal etishni o'z oldiga maqsad qilib qo'ygan respublika «Oila» ilmiyamaliy markazining tashkil etilgani ham davlatimizning oilaviy munosabatlarni takomillashtirishga alohida e'tibor berayotganidan dalolat beradi.

Foydanilgan adabiyotlar

1. Mahmudov T. Go'zallik va hayot. Toshkent. G'.G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti. 1977.
2. Maxmudov T. Estetika i duchovnyye sennosti. Tashkent. Glavnaya redaktsiya izdatelsko-poligraficheskogo konserna «Sharq». 1993.
3. Umarov E. Estetika. Toshkent. O'zbekiston. 1995 y.
Xogart Uilyam. Analiz krasoty. Leningrad. Xudojnik. 1987

МЕДИЦИНА, ПЕДАГОГИКА И ТЕХНОЛОГИЯ: ТЕОРИЯ И ПРАКТИКА

Том 1, Выпуск 4, 30 Декабря

O`ZBEKISTON RESPUBLIKASI VA BUYUK BRITANIYA XALQARO MUNOSABATLAR TARIXI

Toshboyeva Farangiz

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqola O`zbekistonning mustaqil davlat sifatidagi tashqi siyosatining olib borishi, ya`ni Buyuk Britaniya O`zbekiston aloqalariga bag`ishlanadi. Maqolada ushbu davlatlarning manfaatli savdo aloqalari hamda savdo aylanmasi, madaniy gumanitar hamkorligi haqida fikr yuritiladi.

Kalit so`zlar: integratsiya, memorandum, parlament, pakt, protsess, analogik ,tarixshunoslik.

Mustaqil O`zbekiston respublikasi hamda Buyuk Britaniya aloqalari tarixi va manbashunosligi haqida so`z yuritar ekanmiz avvalo ikkala davlatning hamkorlik odimlariga bir nazar tashlasak.1991 yilning 31 avgusti – O`zbekiston Respublikasining mustaqilligi rasman e`lon qilingan kun mamlakatimiz uchun yangi tarixiy davr –buyuk kelajakka chog`langan erkin, suveren rivojlanish davri boshlangan qutlug` sana bo`lib qoldi. O`zbekistonning tashqi dunyodan asriy to`sib qo`yilganiga barham berildi.O`zbekistonning qudratli salohiyatini butun dunyo yaqqol ko`rdi hamda uning cheksiz imkoniyatlari va istiqboliga baho berdi. Bugun bosib o`tilgan 25 yillik yo`l sarhisob qilinar ekan, faol tashqi siyosat yuritish boshlanishi bilan xalqaro soha o`ziga xosliklari va qonuniyatlari bilan O`zbekiston uchun davlat va jamiyat faoliyatining mustaqil sohasi bo`lib qolgani yaqqol ko`rinadi. O`zbekiston, albatta, xalqaro huqukning teng xuquqli a`zosi bo`lishi, o`z davlatchiligini qurishi, mustaqillikni mustahkamlashi, murakkab ziddiyatlarga boy bo`lgan dunyoda munosib o`rnini egallashi lozim edi. Aynan shu konsepsiyalar asosida davlatlararo aloqalarni musthkamlash asosi qurildi.O`zbekiston hamda Buyuk Britaniya davlatlari munosabatlarining asosi 1993-yil noyabr oyida O`zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimovning ushbu mamlakatga buyurgan tashrifi chog`ida yaratilgan.Ikki mamlakat o`rtasida hamkorlik shartnomalarining imzolanganidan so`ng, aloqlar mustahkamlanishining debochasi bo`ldi.1993-yil 17-19-iyul kunlari Buyuk Britaniya qirolichasining qizi Malika AnnaO`zbekistonda bo`lib, mamalakatimiz, xalqimizning turmush tarsi bilan

МЕДИЦИНА, ПЕДАГОГИКА И ТЕХНОЛОГИЯ: ТЕОРИЯ И ПРАКТИКА

Том 1, Выпуск 4, 30 Декабря

tanishib, Samarqand shahrining o`lmas tarixiy yodgorliklarini ziyorat qilib ketgan edi. 1994-yil 4-12-oktabr kunlari Toshkentda "Britaniya festivali" o`tkazildi. Festival dasturi doirasida Buyuk Britaniyaning 30ga yaqin mahsulotlari ko`rgazmasi namoyishi bo`lib o`tdi. 1993-yil 15-oktabr kuni Buyuk Britaniya tashqi ishlar va va hamdo`stlik ishlari bo`yicha bosh vazir Duglass Xog ning O`zbekistonga rasmiy safari chog`ida ikki davlat o`rtasida madaniyat va a`lim sohalaridagi hamkorlik, ikki yoqlama soliq olmaslik haqidagi bitimlar imzolandi. 1993-yil 22-23-noyabr kunlari O`zbekiston prezidenti I.Karimov boshliq republikamiz delegatsiyasining rasmiy tashrifi. Safar chog`ida delegatsiya a`zolari ingliz qirolchasi Yelizavetta II hamda bosh vazir Jon Meyjor bilan uchrashishdi. Uchrashuvlar natijasida O`zbekiston respublikasi va Buyuk Britaniya qirolligi o`rtasida" to`g`risidagi shartnoma "Sarmoyalarni o`zaro rag`batlantirish va himoyalash to`g`risida" bitim, "havo yo`llarini ochish to`g`risida" ikki mamlakat o`rtasida fuqarolarning erkin yurishi to`g`risida memorandum imzolandi. Mashhur Rotshildlar oilasi banki hamda Yevropa tiklanish banki bilan uchrashuvlari bo`lib o`tdi. Ta`kidlash joiz, O`zbekiston dunyoning turli davlatlari bilan o`zaro manfaatli munosabatlarni yana-da mustahkamlashga qaratilgan siyosat olib bormoqda. Bu jarayonda, jumladan, xalq diplomatiyasidan ham unumli foydalanilmoqda. Mamlakatimizda barcha millat vakillari uchun o`z madaniyati, urf-odatini asrab-avaylash, milliy qadriyatlarni rivojlantirish uchun barcha sharoit yaratilgan. Xususan, bugungi kunda O`zbekistonda 36 ta do`stlik jamiyati faoliyat olib bormoqda, 143 ta milliy-madaniy markaz ishlab turibdi.

Lui Skinner "Britaniya – O`zbekiston" jamiyatining 20 yillik tarixida o`zaro xalq diplomatiyasini rivojlantirish borasida amalga oshirilayotgan ishlar, jamiyatning maqsad va vazifalari, faoliyati haqida atroflicha ma`lumot berdi.

Ta`kidlash joiz, Buyuk Britaniya O`zbekistonni Markaziy Osiyoda eng barqaror rivojlanayotgan, ulkan iqtisodiy-ijtimoiy salohiyatga ega hamkor davlat sifatida ko`radi. Keyingi yillarda mamlakatlarimiz o`rtasida turli sohalar, jumladan, madaniyat, san`at yo`nalishidagi hamkorlik aloqalari yana-da rivojlanayotgani tahsinga sazovor. Bunda ikki mamlakat xalqlari o`rtasidagi xalq diplomatiyasiga asoslangan aloqalar muhim ahamiyat kasb etayotir.

Xulosa o`rnida shuni aytish mumkinki, ushbu mavzuni yotishda manbaalarning xilma-xilligi hamda ular orasidagi tafaut uning asl mohiyatiga putur yetkazmasligiga ahamiyat qaratilish lozim. Shuningdek bugungi kundagi

МЕДИЦИНА, ПЕДАГОГИКА И ТЕХНОЛОГИЯ: ТЕОРИЯ И ПРАКТИКА

Том 1, Выпуск 4, 30 Декабря

tashqi iqtisodiy integratsiyalar ni o`rganishda ushbu mavzularda tadqiqot olib borgan olimlarning ilmiy izlanishlari chetda qolmasligi hamda ular mavzuning asosiy o`rganish obyekti bo`lishi lozim.

Adabiyotlar:

1. Касымов А, Васькин И. Основные направления внешней политики Республики Узбекистан – Т.: Узбекистан, 1994.
2. Каримова Г.И. Политико-экономические реформы в Узбекистане: реалии и перспективы. – Т.: Узбекистон, 1995.
3. Сулейманова Ф. Шарк ва Раб. – Т.: Узбекистон. 1997.
4. Узбекистон Республикаси мустакилликгини мустакамлашда касба уюшмалари. (илмий-методик ва назарий конференция матнлари туплами). – Ташкент, Уни-верситет. 1996.
5. Холлиев Азизбек Гузалбекович. Экономические, научно-технические и культур-ные связи независимого Узбекистана в Великобритании и США: автореферат диссертации
6. Мамараджабов, Б. (2023). САУДИЯ АРАБИСТОНИДАГИ ЎЗБЕК МУҲОЖИРЛАРИ ТАРИХИ: МУВАФФАҚИЯТЛИ АССИМИЛЯЦИЯ ВА ЙЎҚОТИЛГАН МИЛЛИЙ ИДЕНТИКЛИК. Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари/Актуальные проблемы социально-гуманитарных наук/Actual Problems of Humanities and Social Sciences., 3(S/6).
7. Мамаражабов, В. N. M. O. G. (2023). MARKAZIY OSIYODA ARABLAR BILAN BOG`LIQ IJTIMOIIY QATLAMLAR. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 3(5), 1048-1052.
8. Мамаражабов, В. N. M. O. G. (2022). ARABISTON YARIM OROLIDA DAVLATCHILIKNING SHAKLLANISHI. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 2(10), 118-121.

МЕДИЦИНА, ПЕДАГОГИКА И ТЕХНОЛОГИЯ: ТЕОРИЯ И ПРАКТИКА

Том 1, Выпуск 4, 30 Декабря

Eng yangi davrda Janubiy Koreya davlati va uning O'zbekiston bilan aloqalari

Axtamova Xurshida Jamshid qizi

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqololada eng yangi davr ya'ni 1945 yildan to hozirgacha janubiy Koreya davlati tashkil topishi, prezidentlari, hokimiyatdagi o'zgarishlar, rivojlanishi uchun tanlanga "koreys iqtisodiy mo'jizasi", 5 yillik rivojlanish dasturi to'grisida ma'lumotlar berilgan. Janubiy Koreya davlati bu o'zgarishlar natijasida hozirda G-20 davlatlarga a'zo sifatida faoliyat olib bormoqda. Hozirgi kunda koreya madaniyati ham o'z natijalariga erishib kelib, O'zbekiston bilan aloqalari ancha yaxshi natijalarga erishgan.

Kalit so'z: Postdan konferensiyasi, Li Sin Man, "kommunistik partizanlik", Pak Chjon Xi, Samsung, Xyonde, DEU, Laki Gold star (LG), "koreys iqtisodiy mo'jizasiga"

Koreya 1910-yildan 1943-yilgacha Yaponiya mustamlakasi bo'lgan. 1943-yilda Koreya mustaqillikka erishgan bo'lsada, keyinchalik u ikki davlatga bo'linib ketdi. Buning asosiy sababi 1945-yilda Koreyaning shimolini SSSR armiyasi, janubini esa AQSH armiyasi egallab olganligi edi. Potsdam konferensiyasi 1945-yilda 38-parallel kenglikni SSSR va AQSH armiyasi o'rtasidagi chegara chizig'i, deb belgiladi. Bu ikki o'ta buyuk davlat siyosiy xaritani o'z xohishlariga ko'ra tuzishga urinishlari oxir-oqibatda Koreyaning ham ikkiga bo'linib ketishiga olib keldi.

1948-yilning 15-avgustida Koreyaning janubida Li Sin Man boshchiligida Koreya Respublikasi tashkil topdi. 9-sentabrda esa shimolda Kim Ir Sen boshchiligida Koreya Xalq Demokratik Respublikasi tuzilganligi e'lon qilindi. 1950-yilda bu ikki koreys davlati o'rtasida urush harakatlari boshlandi. Bu urushga AQSH, SSSR va XXR ham aralashdi. Ikki yillik muzokaralardan so'ng, nihoyat, 1953-yilning 27-iyulida yarash bitimi imzolandi.

Mamlakatning birinchi prezidenti Li Sin Man hukmronligi davri (1948 -1960) avtoritarizm, iqtisodiy holatning yanada yomonlashishi, umumiy korrupsiya va demokratik erkinlikning poymol bo'lish bilan xarakterlanadi. 1951 yil 11 fevralda "kommunistik partizanlik" shubhasi ostida 500 dan ortiq aholi o'ldirilgan. 1952

МЕДИЦИНА, ПЕДАГОГИКА И ТЕХНОЛОГИЯ: ТЕОРИЯ И ПРАКТИКА

Том 1, Выпуск 4, 30 Декабря

Yilning mayida esa Li Sin Manning buyrug'i bilan parlamentning muxolifatdagi 50 dan ortiq a'zosi aslida mavjud bo'lmagan "xalqaro kommunistik partiya" tomonidan moliyaviy yordam olganlikda gumon qilinib qamoqqa olindi. 1958 yilning yanvarida muxolifatdagi taraqqiyot (Chinbodan) partiyasi rahbarlari qamoqqa olindi, partiyaning o'zi yopildi, Li Sin Manning raqibi 1956 yilgi saylovlarda "KXDR foydasiga ayg'oqchilikda" ayblanib jazolangan. 1959 yil aprelda "Kyonxyan sinmun " muxolif gazetasi yopiladi. Jamiyatda norozilik kuchayadi. Prezidentlik saylovlarining qalbakilashtirilishi 1960 yil 15 martda Masana shahrida namoyishlarga olib keladi. So'ngra noroziliklar poytaxtga ko'chirildi. Uning yuqori cho'qqisi 1960 yil 19 apreldagi chiqishlar bo'lib, Seul ko'chalariga 100 mingdan ortiq kishi, birinchi navbatda, talabalar chiqadi va bu namoyish Li Sin Manning iste'fo berib AQShga qochib ketishiga olib kelgan.

1961 yil 16 mayda mamlakatda harbiy to'ntarish bo'lib o'tdi, natijada hokimiyat tepasiga general Pak Chjon Xi keldi. Hukumat egallab olingandan so'ng harbiy guruh parlamentning har ikkala palatasini va siyosiy partiyalarni tarqatib yubordi, namoyishlar va mitinglar o'tkazishni taqiqladi, ko'plab gazeta va jurnallar yopildi. Siyosat bilan shug'ullanishi taqiqlangan 4 mingta siyosiy arbobning nomi e'lon qilindi. 1962 yil dekabrda yangi konstitutsiya qabul qilindi. Pak Chjon Xi mamlakatni 1979 yilga qadar boshqardi (u 1967 va 1971 yillarda Janubiy Koreyaning prezidenti etib qayta saylangan).

Pak Chjon Xi hukumronligi davri qarama-qarshi xarakterga ega bo'lgan. Bir tomondan, aynan u tomonidan "koreys iqtisodiy mo'jizasiga" olib kelgan modernizatsiyalash o'tkazildi. 5 yillik rivojlanish dasturini ishlab chiqqan iqtisodiy rejalashtirish Byurosi tuzildi, boshqaruv tizimi markazlashtirildi, yirik xorijiy investitsiyalar jalb etildi, tezkor magistral tarmog'i qurildi, Samsung, Xyonde, DEU, Laki Gold star (LG) va shu kabi iqtisodiy o'sishda lokomotiv rolni o'ynagan moliyaviy -sanoat korporatsiyalari (cheboley) uchun sharoit yaratildi. Iqtisodiy rivojlanish strategiyasi mamlakat sanoatini rivojlantirish va koreys mahsulotlarini chet el bozorlariga chiqarish maqsadida xorijiy kapitallarni jalb etishga qaratilgan edi. Agar 1960 yilda Janubiy Koreya eksporti xajmi 33 mln. dollarini tashkil etgan bo'lsa, 1979 yilga kelib bu ko'rsatkich 15 mlrd. dollarga yetdi.

Juda kambag'al bo'lgan Janubiy Koreyada 1970-yillardan og'ir sanoat, avvalo, metallurgiya, mashinasozlik, kimyo sanoati rivojlantirildi. Elektronika sanoati jadal taraqqiy etdi. Dastlab lampali radio priyomniklar, oq-qora televizorlardan boshlagan Janubiy Koreya, keyin magnitofonlar, rangli televizorlar,

МЕДИЦИНА, ПЕДАГОГИКА И ТЕХНОЛОГИЯ: ТЕОРИЯ И ПРАКТИКА

Том 1, Выпуск 4, 30 Декабря

kompyuterlar, mikrosxemalar, so'ngra videomagnitofonlar, lazerli proigrivatellar, mikroto'lqinli pechlar va nihoyat personal IBMlar ishlab chiqarishga o'tdi. Tashqi savdoda ham shunga mos o'zgarishlar yuz berdi. Janubiy Koreya po'lat, dengiz kemalari, avtomobillar, uy-ro'zg'or elektroni kasi va boshqa shu kabi mahsulotlarni eksport qilish bo'yicha dunyo liderlari safi dan o'rin egalladi. 1990-yillarga kelib Janubiy Koreya iqtisodiy rivojlangan industrial davlat sifatida shakllandi va postindustrial taraqqiyot elementlariga ega bo'lib, jahon iqtisodiyotida muhim o'rin egalladi.

1987-yilgi saylovlarda general Ro De Vu g'alaba qildi. 1992 yilgi saylovlardagi g'alab asi bilan Adolat liberal demokratik partiyasi yetakchisi Kim Yen Sam Janubiy Koreyada harbiy doiralarning uzoq yillik boshqaruv davriga barham berdi. Oldingi tuzumning kirdikorlari fosh etildi. Sobiq prezidentlar Chon Du Xvan va Ro De U qamoqqa olinib, ustidan jinoiy ish qo'zg'atildi. Ular pora olganlikda ayblandilar. Chon Du Xvan esa davlat to'ntarishi paytidayoq Kvanju aholisi tom onidan otib tashlandi. Chon Du Xvan o'lim jazosiga hukm etildi, Ro De U esa 22,5 yil muddatga ozodlikdan mahrum etildi. Keyinchalik Chon Du Xvanning hukmi qayta ko'rib chiqilib, umrbod qamoq jazosi bilan almashtirildi, Ro De U esa 17 yilga qamaldi Korruptsiyaga qarshi ommaviy kurash boshlandi. Siyosatchilar, amaldorlar, harbiylar, professorlar va madaniyat xodimlarining moliyaviy ahvoli to'g'risida ma'lumotlar chop etila boshladi.

- Shinalarda kuchlanish yo'qolishining sababiga bog'liq bo'lmagan holda, har qanday kuchlanish yo'qolishida zaxirani avtomatik ulash bajarilishi shart.
- ZAU bir karra ishlashi shart.
- Tez ishlash. ZAU qurilmasidagi vaqt relesining o'rnatmasi odatda 0,3-0,8 soniyadan oshmaydi.
- Zaxira tarafida kuchlanish bo'lmasa, ZAU ishlamasligi shart.

Ikki transformatorli podstansiya misolida ZAUning ishlash prinsipi bilan tanishib chiqamiz (2-rasm).

Normal holatda iste'molchilarning ta'minoti T1 ishchi transformator orqali bajariladi. T2 zaxira transformatori o'chirilgan va avtomatik zaxira holatidadir.



2-rasm. Ikki transformatorli podstansiya uchun ZAU sxemasi.

Kuchlanish yo'qoli shining quyidagi (3-rasm) turli hollarini ko'rib chiqamiz.


L

T1 transformatorining Q1 uzgichi turli sabablar bo'yicha o'chganda, uning SQ1.2 blok-kontakti KL1 oraliq relesi chulg'amining zanjirini uzadi. Buning oqibatida uzgich ulangan paytida o'zakga tortilib turgan KL1 relesining yakori qo'yib yuboriladi, lekin uning kontaktlari bir qancha sabr vaqtdan so'ng ajraydi.

Q1 uzgichi o'chganda uning SQ1.3 ikkinchi blok-kontakti KL2 oraliq relesining hali uzilishga ulgurmagan KL1.1 kontakti orqali KL2 oraliq relesining chulg'amiga operativ tokning "plyusini" beradi. U o'z navbatida qo'shib, o'zining kontaktlari orqali YAC3 va YAC4 uzgichlarining ulash kontaktorlariga ta'sir qiladi va zaxiradagi transformatorning Q3 va Q4 uzgichlarini ulaydi. Belgilangan sabr vaqti o'tgach, KL1 oraliq relesi kontaktlarini ajratadi va KL2 relesining chulg'am zanjirini uzadi.

Shu tufayli, mabodo, ZAU qurilmasi yordamida zaxira transformatori turg'un qisqa tutashuvga ulansa, u himoyadan o'chadi, lekin qayta ulanmaydi. Demak, KL1 relesi ZAU ning bir karra ishlashini ta'minlab berar ekan va shuning uchun uni bir karra ulab berish relesi deb atashadi.

Faqatgina normal sxema tiklanib, ya'ni Q1 uzgichi ulanib, uning SQ1.2 blokkontakti qo'shilgandan so'ng, KL1 relesi o'zining kontaktini qayta qo'shadi va ZAU sxemasini qayta ishlashiga tayyorlab qo'yadi Q3 va Q4 uzgichlari ishonarli ulanishga ulgurishi uchun KL1 relesi kontaktlarining ajralishga sabr vaqti uzgichlarining ulanish vaqtiga nisbatan kattaroq bo'lishi kerak. Yuqorida ishchi transformatorning Q1 uzgichi o'chganda ZAU sxemasining ishlashi ko'rib chiqildi.



3-rasm.Kuchlanish yo'qolishining turli hollarida ZAU sxemasi.

МЕДИЦИНА, ПЕДАГОГИКА И ТЕХНОЛОГИЯ: ТЕОРИЯ И ПРАКТИКА

Том 1, Выпуск 4, 30 Декабря

2. Shu bilan birga ishchi transformatorning yuqori tarafidagi Q2 uzgichi o'chib qolish ehtimoli borligini ham e'tiborda tutish kerak. Bunday holatda ham C podstansiyasi iste'molchilari ta'minotini yo'qotishadi.

ZAU sxemasining bu holatda ham ishlashi uchun Q2 o'chganda uning SQ2.2 blok-kontakti orqali Q1 uzgichining YAT1 o'chirish chulg'amiga impuls beriladi. Ishchi T1 transformatorning Q1 uzgichi o'chgandan so'ng ZAU sxemasi ishga tushib ketib, yuqorida ko'rib chiqilgan ketma-ketlikda ishlaydi.

3. Birorta sababga ko'ra B podstansiyasining yuqori kuchlanish shinalari kuchlanishsiz qolsa, iste'molchilar bu holatda ham ta'minotsiz qoladi. Bunda ZAU sxemasi ishlamaydi, chunki ishchi transformatorning ikkala uzgichi ulanganligicha qoladi. Bu holatda ham ZAU ni ishlatish uchun KV1, KV2, KV3 va KL3 relelarini tarkibiga olgan minimal kuchlanish bo'yicha ishga tushish maxsus organi ko'zda tutilgan.

B podstansiyasining shinalarida kuchlanish yo'qolganda (demak, C podstansiyasida ham kuchlanish yo'q), TV1 kuchlanish transformatoriga ulangan KV1 va KV2 kuchlanish relelari o'z kontaktlarini ulab, KV3 relesining kontakti orqali KT1 vaqt relesining chulg'amiga operativ tokning plyusini yetkazib beradi. KT1 relesi ishga tushib, belgilangan sabr vaqti o'tgach, KL3 chiqish oraliq relesi chulg'amiga ta'minot beradi va u ishchi transformatorning Q1 va Q2 uzgichlarini o'chiradi. Q1 o'chgach, ZAU sxemasi yuqorida ko'rib chiqilgan ketma-ketlikda ishlaydi.

Agar A podstansiyasida T2 zaxira transformatorning yuqori kuchlanish shinalarida kuchlanish bo'lmasa, unda oldindan ma'lumki, ZAU ishlashi behuda bo'ladi. Minimal kuchlanish bo'yicha ishga tushish organidan T1 transformatori bekorga o'chirilishining oldini olish maqsadida, sxemada KV3 kuchlanish relesi ko'zda tutilgan. KV3 relesi T2 kuchlanish transformatoriga ulangan va kuchlanish bo'lmaganda u o'zining kontaktini ajratib yuboradi. Shu tufayli KV1 va KV2 relelaridan KT1 vaqt relesi chulg'amiga zanjir uziladi. ZAU sxemasi ishga tushmaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar

МЕДИЦИНА, ПЕДАГОГИКА И ТЕХНОЛОГИЯ: ТЕОРИЯ И ПРАКТИКА

Том 1, Выпуск 4, 30 Декабря

1. “Elektr tizimlarining avtomatikasi” “Aktiv print”
X.A.Shamsiyev, Sh.M.Mirzabekov, G.F.Mo‘sinova
2. R. D, “Protective relaying for power generation systems,” in CRC Press, Taylor and Francis group, pp.
3. Шамсиев Х.А. Автоматика электрических станций и энергосистем. ТошДТУ.,
4. Маматкулов, Т. Ч., Салохиддинов, Ж. А., & Саматов, Ж. С. (2023). Система контроля и управления территориально-распределенными технологическими объектами водного хозяйства. *Journal of Universal Science Research*, 1(12), 79-87.
5. Маматкулов Т.Ч, Салохиддинов Ж.А. Мониторинг И Управление Технологических Объектов Водохозяйственных Систем. “Ilm Fan va Ta’lim” Respublika ilmiy jurnali. 8-nashr.
6. Alisher o’g’li, J. S., & Tursunpo’latovich, A. S. (2023). SUN’IY INTELLEKTNING TA’LIMDAGI INQILOBI: CHATBOTLARNING TA’LIM OLISHDAGI ROLI. *Journal of Universal Science Research*, 1(12), 77-78

МЕДИЦИНА, ПЕДАГОГИКА И ТЕХНОЛОГИЯ: ТЕОРИЯ И ПРАКТИКА

Том 1, Выпуск 4, 31 Декабря

COVID-19 O'TKAZGAN REVMATOID ARTRITLI BEMORLARNI DAVOLASH.

Toshkent tibboyot akademiyasi

2 son ichki kasalliklar kafedrası assistenti

Sharapov Zafar Abdunayemovich

Annotasiya: Ko'plab revmatoid artritli bemorlarda COVID-19 pandemiyasidan so'ng kasallikni klinik kechishining aktivlashishi, yangi asoratlari va aksariyat bemorlarda koviddan keying holat kuzatildi. Ushbu maqolada COVID-19 pandemiyasidan so'ng 3 yil davomidagi xalqaro ilmiy izlanishlarda aniqlangan COVID-19 revmatoid artrit klinik kechishiga ta'siri va davolanishdagi natijalari o'rganiladi.

Kalit so'zlar: revmatoid artrit, bo'g'imlarning shikastlanishlari, interlyukin, COVID-19, gen injenerli biologic vositalar (GIBDV), interleykin 6 ingibitori (irIL6) va yanus kinaza ingibitori (IYK),

Ko'plab olimlar ta'kidlashiga ko'ra immunyallig'lanishli revmatik kasalliklarda (IYRK) Covid-19 og'ir kechadi va o'lim xavfini 1,5 baravar oshiradi [1,2]. Dunyo bo'ylab 20 million kishi revmatoid artrit (RA) bilan yashaydi [3,4], ularning aksariyati kamida bir marta SARSCoV-2 bilan kasallangan yoki tez orada yuqtiradi.

COVID-19 pandemiyasi mutaxassislarning IYRK uchun terapiyaning xavfsizligi haqidagi tushunchalarini sezilarli darajada o'zgartirdi. Rossiyalik va xorijiy mualliflar pandemiya davrida IYRK davolash xususiyatlarini faol o'rganmoqda, shuningdek, yangi koronavirus infeksiyasining yanada og'ir kechishini belgilovchi omillarni tahlil qilmoqda [5].

Biroq, COVID-19 patogenezini haqida haligacha ham aniq tushuntirish yo'q. Hozirgi vaqtda sitokin regulatsiyasining buzilishi va yuqori yallig'lanish ushbu kasallikning asosiy klinik ko'rinishlari va asoratlari uchun mas'ul ekanligiga ishoniladi, ular sitokinlar xujumi deb ataladi. SARS-CoV-2 infeksiyasidan so'ng o'pkada ko'p miqdordagi signal reaksiyalari paydo bo'ladi, so'ngra IL-1b, IL-6, IL-8, CXCL10 va TNF-a kabi sitokinlar va kimyokinlar chiqariladi va yallig'lanish hujayralarini infeksiyalangan joylarga jalb qilish, bu ko'pincha o'tkir respirator distress sindromi, ko'p organ etishmovchiligi va hatto o'limga olib keladi [6].

RA li bemorlarda COVID-19 infeksiyasiga beriluvchanlikka va uning asoratlari sabab bo'luvchi bir necha asosiy xavf omillari mavjud. Bular o'zgargan asosiy o'zgartirilgan immunitet, vaksinalar va infeksiyalarga immun javobni susaytiradigan immunomodulyatsiya qiluvchi dori vositalari [3] va interstitsial

МЕДИЦИНА, ПЕДАГОГИКА И ТЕХНОЛОГИЯ: ТЕОРИЯ И ПРАКТИКА

Том 1, Выпуск 4, 31 Декабря

o'pka kasalligi (IO'K) va yurak-qon tomir kasalliklari COVID-19 ni og'ir kechishiga sabab buluvchi xavf omillari bo'lib, odatda o'lim xavfini oshiradi va kasalxonada yotib davolanishga ko'rsatma bo'lib hisoblanadi.[7]

SARS-CoV-2 keltirib chiqaradigan infeksiyalar, birinchi navbatda, nafas olish tomchilari orqali yuqadi, ular patogenligi yuquvchanligi juda yuqori. [8]

SARS-CoV-2 sabab bo'lgan COVID-19 nafas yo'llarining og'ir kasalligi bo'lib, u ko'plab populyatsiyalarga, ayniqsa qariyalarga ta'sir qiladi va butun dunyo bo'ylab tez tarqalib, odamlar uchun jiddiy xavf tug'diradi. Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti (JSST) statistik ma'lumotlariga ko'ra (<https://covid19.who.int/>), shu paytgacha dunyo bo'ylab 760 milliondan ortiq tasdiqlangan holatlar qayd etilgan, 6,8 millionga yaqin kishi vafot etgan.

Shunisi e'tiborga loyiqki, COVID-19 bilan kasallangan bemorlarda sitokin va immun faollashuv RA bilan og'rigan bemorlarga o'xshaydi [9]. RA bilan og'rigan bemorlarning mahalliy yallig'lanish uchoqlarida immun hujayralar va yallig'lanishga qarshi sitokinlar, shu jumladan IL-1b, IL-6, IL-17 va TNF-a autoimmun yallig'lanish patogenezda hal qiluvchi rol o'ynaydi.

RA bilan og'rigan bemorlarda immun tizimining potentsial disfunktsiyasi, komorbid kasalliklar va uzoq muddatli immunosuppressiv dorilar tufayli infeksiyaga qarshi qobiliyat umumiy aholinikidan past bo'lishi mumkin [10,11].

Oldingi ba'zi tadqiqotlarga ko'ra, COVID-19 RA bilan og'rigan bemorlarda ko'proq uchraydi va klinik kechishi umumiy populyatsiyadagiga qaraganda og'irroqdir [12].

Tadqiqotlar shuni ko'rsatdiki, yuqumli kasalliklar RA bemorlarida erta o'limning asosiy sababidir.[13,14,15]. Buyuk Britaniyada o'tkazilgan prospektiv kohort tadqiqotiga ko'ra, RA bilan og'rigan bemorlarda infeksiya xavfi umumiy aholiga qaraganda 3,5 baravar yuqori [16].

Bundan tashqari, to'g'ridan-to'g'ri RA yoki davolashning bilvosita ta'siri tufayli yuzaga keladigan immunitet o'zgarishlari COVID-19 uchun yomon prognozga olib kelishi mumkin.[17]. Oqibatda, SARS-CoV-2 bilan kasallanishning yuqori ehtimoli va COVID-19 ning salbiy oqibatlari, shubhasiz, RA bemorlarini davolashda jiddiy to'siq bo'ladi [18].

COVID-19 bo'yicha umumlashtirilgan tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, RAni davolash uchun ishlatiladigan ba'zi dorilar ham COVID-19 ga ta'sir qilishi mumkin [19].

МЕДИЦИНА, ПЕДАГОГИКА И ТЕХНОЛОГИЯ: ТЕОРИЯ И ПРАКТИКА

Том 1, Выпуск 4, 31 Декабря

RA bilan og'rigan bemorlarda timus disfunktsiyasi, periferik T hujayralarining yangilanishi va qon T hujayralarining disfunktsiyasi kuchayadi, bu ularni virusli infektsiyalarga nisbatan zaifroq qiladi [20].

So'nggi yillarda RAni davolashda sezilarli yutuqlarga erishildi. Zamonaviy asosiy antirevmatik dorilar (MT, LF va boshqalar) va ayniqsa gen injenerli biologic vositalar (*GIBDV*) (masalan, TNF ga monoklonal antitanalar – Remicade, ИЛ-6 ингибитори— тоцилизумаб) yordamida ko'plab bemorlar kasallik faolligini sezilarli 70% ga pasayishiga erishishlari mumkin.

Revmatoid artrit va koronavirus infektsiyasi (COVID-19) kabi etiologiyasi va patogenezi jihatidan farq qiluvchi kasalliklarning asosiy rivojlanish mexanizmlarini ko'rib chiqilganda, ikkala nozologiyada ham yallig'lanishga qarshi sitokinlarning sintezi kuchayishi aniqlangan va biologik faol preparatlarni qo'llash bo'yicha amaldagi klinik tavsiyalarni hisobga olgan holda ushbu holatlarda *GIBDV* qullash maqsadga muvofiqdir[21].

D. Galarza-Delgado va boshqalarga ko'ra. [22], biologik faol dorilar bilan davolash paytida IYRK bo'lgan bemorlar COVID-19, odatda, rituksimab (RTM) olgan bemorlar bundan mustasno, koronavirus infektsiyasining og'ir kechishi kuzatilmagan. J. Loarce-Martos va boshqalar. RTM dan foydalanganda kasallik og'irroq kechishi ham tasvirlangan bunda ikki tomonlama o'pka shikastlanishi va o'lim xavfi yuqori bo'lgan.[23]

Jahon sog'liqni saqlash tashkilotining (JSST) farmakologik nazorat bo'yicha hisobotiga ko'ra interleykin 6 ingibitori (irIL6) va yanus kinaza ingibitori (IYK) [12] bilan davolash havfsizroq va samaradorligi yuqoriligini ko'rsatadi[24]

Bir qator tadqiqotlarga ko'ra, biologik faol dori-darmonlarni, ayniqsa TNF-a inhibitorlarini olgan bemorlar kasalxonada yotib davolanishi kamroq kuzatilgan. [25].

COVID-19 o'tkazgan RA bemorlarning kasallikning dastlabki bosqichi, ayniqsa kasallikning boshlanishidan boshlab dastlabki 3 oy, samarali davo uchun eng qulay hisoblanadi. Bemorlarni davolashning asosi davolashning etarililigini diqqat bilan kuzatish (kamida 3 oyda bir marta), agar kerak bo'lsa, davoni keyinchalik tuzatishdir. COVID-19 o'tkazgan RA davolash uchun zamonaviy talablar quyidagilarni o'z ichiga oladi: 3 oy ichida klinik belgilar boshlanganidan keyin yallig'lanishga qarshi nosteroid vositalar (YAQNV) larni tashxis qo'yilgandan so'ng darhol buyurish, har bir bemorda imkon qadar tezroq remissiya yoki past kasallik faolligiga erishish, agar bu maqsadga erishilmasa, tez-tez va to'g'ridan-to'g'ri nazorat qilish orqali davoni tanlash kerakligi (har 1-3 oyda), RA faollik

МЕДИЦИНА, ПЕДАГОГИКА И ТЕХНОЛОГИЯ: ТЕОРИЯ И ПРАКТИКА

Том 1, Выпуск 4, 31 Декабря

ko'rsatkichlari dinamikasini diqqat bilan kuzatib borish va davoni o'z vaqtida tuzatish.

RA bilan og'riqan bemorlarni davolash bo'yicha ACR (2021) ning so'nggi tavsiyalari dori-darmonlarni buyurishda e'tiborga olinishi kerak bo'lgan asosiy parametrlarni islab chiqqan:

1. Erta RA (kasallik davomiyligi <6 oy), oraliq (kasallik davomiyligi 6-24 oy) va o'rnatilgan (uzoq davom etgan simptomlar 24 oydan ortiq vaqt davomida mavjud) ga bo'lingan RA davomiyligi;

2. Turli indekslar (Disease Activity Score-28 (DAS-28) va boshqalar) yordamida bo'linadigan kasallik faolligi aniqlash;

3. Prognostik jihatdan noqulay belgilarning mavjudligi: kasallik faolli (ko'p sonli og'riqli va shishgan bo'g'inlar), erta bosqichda eroziya mavjudligi, revma factor(RF) yoki siklik sitrullinlangan peptidlarga antitanalar(SSPA) ning oshishi, eritrotsitlar cho'kish tezligi (ECHT), S-reaktiv oqsil(SRO) ning oshishi, YAQNV bilan erta davo rentgenologik rivojlanish tezligini pasaytiradi, uzoq muddatli remissiyalar (bemorlarning 65% gacha) chastotasini oshiradi, jiddiy funktsional buzilishlarning oldini oladi va bemorlarning o'limini kamaytiradi. YAQNV lar RA boshlanganidan boshlab 3 oydan kechiktirmay, optimal ta'sirga erishish uchun dozani tez oshirib yuborish kerak (DAS-28<2,4), so'ngra samarasiz bo'lsa, 2-4 oy ichida preparatni almashtirish kerak YAQNV davosi kasallik faolligi pasayganda va remissiyaga erishilganda ham davom ettirilishi kerak.

YAQNV qo'llash fonida kasallik faolligi dinamikasi DAS-28 indeksi bo'yicha baholanadi, bu asosiy davoni tanlashni individuallashtirishga va uning samaradorligini sezilarli darajada oshirishga yordam beradi.

EULAR tavsiyalariga ko'ra, COVID-19 o'tkazgan RAni kasallikni MT preparati bilan davolash maqsadiga erishilmagan bo'lsa, davolanishga biologik dori vositalarini qo'shilishi kerakligi tavsiya etdilar.

COVID-19 bilan kasallangan bemorlarda interleykin-6 miqdoriy ko'rsatkichi balandligining qayt etilishi va kasallik og'irlik darajasi ishonchli korrelyatsion bog'liqligi qayt etilgan. Sitokinlar xujumi vaqtida IL-6 ning ko'p miqdorda hosil bo'lishi kuzatiladi va kasallik og'ir kechishida asosiy rol o'ynaydi.[26]

Revmatologiyada GIBDV maqsadli davoga o'xshash joyni egallaydi. GIBDV klinik amaliyotga kiritilgandan so'ng, kasallik belgilarini to'xtatish bilan bir qatorda, bo'g'imlarda eroziv jarayonni kamaytirishi, bemorning funktsional holati va hayot sifatini yaxshilashiga olib keldi .

МЕДИЦИНА, ПЕДАГОГИКА И ТЕХНОЛОГИЯ: ТЕОРИЯ И ПРАКТИКА

Том 1, Выпуск 4, 31 Декабря

RA bilan og'rigan bemorlar odatda o'z kasalliklarini davolash uchun DMARDlardan foydalanadilar.[27]

Ba'zi DMARDlar immunosupressiv dorilar sinfiga mansub bo'lib, ular organizmda immunosupressiyaga olib kelishi mumkin. Bu RA bemorlarida immun disfunktsiyasi va komorbid kasalliklar tufayli COVID-19 infeksiyasini davolashda ayniqsa tashvishlidir [28].

Immunosupressantlar TNF, IL-1, IL-6 va interferon tomonidan qo'zg'atiladigan sitokinlar hujuminini kamaytiradi, bu COVID-19 bemorlarida organlarning kuchli shikastlanishini kamaytiradi [29], ular shuningdek, autoimmun reaksiyaning pasayishi tufayli infeksiyalar xavfini oshiradi.

Tadqiqotlar shuni ko'rsatdiki, immunosupressant terapiyasi sitokin inhibitori terapiyasini olgan bemorlarga nisbatan COVID-19 natijalarini yomonlashtirishi mumkin [30]. Bundan tashqari, RAli bemorlarda immunosupressantlarning yatrogen ta'siri tufayli infeksiya yomonlashishi mumkin [31].

Glyukokortikoidlar (GC) RA davolashda keng tarqalgan immunosupressiv dorilar bo'lib, og'ir COVID-19 holatlarida yuqori yallig'lanish holatini yumshatib, o'lim va kasalxonaga yotqizish vaqtini kamaytiradi [32].

Biroq, GK lardan ortiqcha foydalanish immunitetni susaytirishi va virusni tozalashni kechiktirishi mumkin. Revmatizm bilan og'rigan bemorlarda GK (kuniga ≥ 10 mg prednizon) qo'llagan holda, og'ir COVID-19 [33] tufayli kasalxonaga yotqizish ehtimoli yuqori.

Bundan tashqari, GK lardan foydalanish COVID-19 bemorlarida, ayniqsa osteoporozga ko'proq moyil bo'lgan keksa bemorlarda suyak yo'qotilishini tezlashtirishi mumkin [34].

Klinik tadqiqotlar past dozali GKlar qabul qilgan surunkali artrit bilan og'rigan bemorlarda COVID-19 [35] ning ko'payishini kursatadi .

Bundan tashqari tadqiqotlar, biologik kasallikni o'zgartiruvchi revmatik dori (bDMARD)larni qabul qilgan RA bilan og'rigan bemorlarda an'anaviy sintetik kasallikni o'zgartiruvchi revmatik dori (csDMARD) [116] qabul qilganlarga qaraganda COVID-19 rivojlanish ehtimoli ko'proq va vaqt o'tishi bilan bu xavf ortib bormoqda [36].

Xulosa qilib aytganda, RA bemorlarida COVID-19 ni davolashda immunosupressantlardan foydalanish ikki qirrali qilichni ko'rsatadi. Klinisestlar har bir bemorning o'ziga xos holatiga qarab yallig'lanishga qarshi foydani yuzaga kelishi mumkin bo'lgan nojo'ya ta'sirlar bilan solishtirishlari kerak. [37]

МЕДИЦИНА, ПЕДАГОГИКА И ТЕХНОЛОГИЯ: ТЕОРИЯ И ПРАКТИКА

Том 1, Выпуск 4, 31 Декабря

COVID-19 ning rivojlanish xususiyatlari va klinik kechishini o'rganish natijasida olingan to'plangan ma'lumotlar bizga COVID-19 va autoimmun kasalliklarning patogenezi asosan o'xshash degan xulosaga kelish imkonini beradi. COVID-19 da qo'zg'atilgan yallig'lanishga qarshi sitokinlar spektri RA dagiga o'xshaydi [38].

Bu holat COVID-19 asoratlarini davolash uchun bir qator biologik faol dori vositalaridan muvaffaqiyatli foydalanish imkonini beradi va pandemiya davrida IYRK terapiyasini davom ettirishni tavsiya qilish imkonini beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Williamson EJ, Walker AJ, Bhaskaran K, Bacon S, Bates C, Morton CE, et al. Factors associated with COVID-19-related death using OpenSAFELY. *Nature*.2020;584(7821):430-436. doi: 10.1038/s41586-020-2521-4
2. Liu M, Gao Y, Zhang Y, Shi S, Chen Y, Tian J. The association between severe or dead COVID-19 and autoimmune diseases: A systematic review and meta-analysis. *J Infect*. 2020;81(3):e93-e95. doi: 10.1016/j.jinf.2020.05.065
3. Sparks JA. Rheumatoid arthritis. *Ann Intern Med* 2019; 170:ITC1–ITC16.
4. Safiri S, Kolahi AA, Hoy D, et al. Global, regional and national burden of rheumatoid arthritis 1990–2017: a systematic analysis of the Global Burden of Disease study 2017. *Ann Rheum Dis* 2019; 78:1463–1471.
5. Белов БС, Ли́ла АМ. COVID-19 и ревматология: год спустя. *Научно-практическая ревматология*. 2021;59(1):31-36. [Belov BS, Lila AM. COVID-19 and rheumatology: A year later. *Nauchno-Prak-ticheskaya Revmatologia = Rheumatology Science and Practice*. 2021;59(1):31-36 (In Russ.)]. doi: 10.47360/1995-4484-2021-31-36
6. Hu B, Huang S, Yin L (2021). The cytokine storm and COVID-19. *J Med Virol*, 93:250-256. [3] Rodriguez-Morales AJ, Cardona-Ospina JA, Gutiérrez-Ocampo E, Villamizar-Peña R, Holguin-Rivera Y, Escalera-Antezana JP, et al. (2020). Clinical, laboratory and imaging features of COVID-19: A systematic review and meta-analysis. *Travel Med Infect Dis*, 34:101623.
7. CURRENT OPINION in rheumatology/ Acute and postacute COVID-19 outcomes for patients with rheumatoid arthritis: lessons learned and emerging directions 3 years into the pandemic / Volume 35 Number 3 May 2023 / Alessandra Zaccardella , Zachary S. Wallaceb,c,d and Jeffrey A. Sparksd,e/

МЕДИЦИНА, ПЕДАГОГИКА И ТЕХНОЛОГИЯ: ТЕОРИЯ И ПРАКТИКА

Том 1, Выпуск 4, 31 Декабря

8. Harrison AG, Lin T, Wang P (2020). Mechanisms of SARS-CoV-2 Transmission and Pathogenesis. *Trends Immunol*, 41:1100-1115.
9. Smolen JS, Aletaha D, Barton A, Burmester GR, Emery P, Firestein GS, et al. (2018). Rheumatoid arthritis. *Nat Rev Dis Primers*, 4:18001. [5] Scherer HU, Hupl T, Burmester GR (2020). The etiology of rheumatoid arthritis. *Journal of Autoimmunity*, 110:102400.
10. Doran MF, Crowson CS, Pond GR, O'Fallon WM, Gabriel SE (2002). Frequency of infection in patients with rheumatoid arthritis compared with controls: a population-based study. *Arthritis Rheum*, 46:2287-2293.
11. Mehta B, Pedro S, Ozen G, Kalil A, Wolfe F, Mikuls T, et al. (2019). Serious infection risk in rheumatoid arthritis compared with non-inflammatory rheumatic and musculoskeletal diseases: a US national cohort study. *RMD Open*, 5:e000935.
12. England BR, Roul P, Yang Y, Kalil AC, Michaud K, Thiele GM, et al. (2021). Risk of COVID-19 in Rheumatoid Arthritis: A National Veterans Affairs Matched Cohort Study in At-Risk Individuals. *Arthritis Rheumatol*, 73:2179-2188
13. Cobb S, Anderson F, Bauer W (1953). Length of life and cause of death in rheumatoid arthritis. *New England Journal of Medicine*, 249:553-556.
14. Uddin J, Kraus AS, Kelly HG (1970). Survivorship and death in rheumatoid arthritis. *Arthritis Rheum*, 13:125- 130.
15. Thomas E, Symmons DP, Brewster DH, Black RJ, Macfarlane GJ (2003). National study of cause-specific mortality in rheumatoid arthritis, juvenile chronic arthritis, and other rheumatic conditions: a 20 year followup study. *J Rheumatol*, 30:958-965.
16. Franklin J, Lunt M, Bunn D, Symmons D, Silman A (2007). Risk and predictors of infection leading to hospitalisation in a large primary-care-derived cohort of patients with inflammatory polyarthritis. *Ann Rheum Dis*, 66:308-312
17. Maddur MS, Vani J, Lacroix-Desmazes S, Kaveri S, Bayry J (2010). Autoimmunity as a predisposition for infectious diseases. *PLoS Pathog*, 6:e1001077
18. Grainger R, Kim AHJ, Conway R, Yazdany J, Robinson PC (2022). COVID-19 in people with rheumatic diseases: risks, outcomes, treatment considerations. *Nat Rev Rheumatol*, 18:191-204
19. Schett G, Manger B, Simon D, Caporali R (2020). COVID-19 revisiting inflammatory pathways of arthritis. *Nat Rev Rheumatol*, 16:465-470.
20. Blumentals WA, Arreglado A, Napalkov P, Toovey S (2012). Rheumatoid arthritis and the incidence of influenza and influenza-related

МЕДИЦИНА, ПЕДАГОГИКА И ТЕХНОЛОГИЯ: ТЕОРИЯ И ПРАКТИКА

Том 1, Выпуск 4, 31 Декабря

complications: a retrospective cohort study. *BMC Musculoskelet Disord*, 13:158-167.

21. К.Ю.Картышева, Т.И.Оконенко, Е.Е.Румянцев, А.К.Искандарян, С.В.Мербах/ ЗНАЧЕНИЕ ГЕННО-ИНЖЕНЕРНЫХ ПРЕПАРАТОВ В ТЕРАПИИ НОВОЙ КОРОНАВИРУСНОЙ ИНФЕКЦИИ И РЕВМАТОИДНОГО АРТРИТА/ 2022 ВЕСТНИК НОВГОРОДСКОГО ГОСУДАРСТВЕННОГО УНИВЕРСИТЕТА №2 стр.76-79.

22. Galarza-Delgado D.B. et al. Characteristics and evolution of 38 patients with rheumatic diseases and COVID-19 under DMARD therapy // *Clin Rheumatol*. 2021. Vol. 40, № 3. P. 1197-1199

23. Loarce-Martos J, Garcia-Fernández A, Lypcz-Gutiérrez F, Garcia-Garcia V, Calvo-Sanz L, Del Bosque-Granero I, et al. High rates of severe disease and death due to SARS-CoV-2 infection in rheumatic disease patients treated with rituximab: A descriptive study. *Rheumatol Int*. 2020;40(12):2015-2021. doi:10.1007/s00296-020-04699-x

24. Dernoncourt A, Schmidt J, Duhaut P, Liabeuf S, GrasChampel V, Masmoudi K, et al. COVID-19 in DMARD-treated patients with inflammatory rheumatic diseases: Insights from an analysis of the World Health Organization pharmacovigilance database. *Fundam Clin Pharmacol*. 2022;36(1):199-209. doi: 10.1111/fcp.12695.

25. Gianfrancesco M, Hyrich KL, Al-Adely S, Carmona L, Danila MI, Gossec L, et al.; COVID-19 Global Rheumatology Alliance. Characteristics associated with hospitalisation for COVID-19 in people with rheumatic disease: Data from the COVID-19 Global Rheumatology Alliance physician-reported registry. *Ann Rheum Dis*. 2020;79(7):859-866. doi: 10.1136/annrheumdis-2020-217871.

26. Jiang Y, Zhao T, Zhou X, Xiang Y, Gutierrez-Castrellon P, Ma X. Inflammatory pathways in COVID-19: Mechanism and therapeutic interventions. *MedComm*. 2022;3(3):e154. doi: 10.1002/mco2.154

27. Lin YJ, Anzaghe M, Schülke S (2020). Update on the Pathomechanism, Diagnosis, and Treatment Options for Rheumatoid Arthritis. *Cells*, 9:880-922.

28. Listing J, Gerhold K, Zink A (2013). The risk of infections associated with rheumatoid arthritis, with its comorbidity and treatment. *Rheumatology (Oxford)*, 52:53-61.

МЕДИЦИНА, ПЕДАГОГИКА И ТЕХНОЛОГИЯ: ТЕОРИЯ И ПРАКТИКА

Том 1, Выпуск 4, 31 Декабря

29. Harrison C (2020). Focus shifts to antibody cocktails for COVID-19 cytokine storm. *Nat Biotechnol*, 38:905-908.
30. Simon D, Tascilar K, Krönke G, Kleyer A, Zaiss MM, Heppt F, et al. (2020). Patients with immune-mediated inflammatory diseases receiving cytokine inhibitors have low prevalence of SARS-CoV-2 seroconversion. *Nat Commun*, 11:3774-3780.
31. Rizk JG, Kalantar-Zadeh K, Mehra MR, Lavie CJ, Rizk Y, Forthal DN (2020). Pharmaco-Immunomodulatory Therapy in COVID-19. *Drugs*, 80:1267-1292.
32. Wang Y, Jiang W, He Q, Wang C, Tong Q (2020). Early, low-dose and short-term application of corticosteroid treatment in patients with severe COVID-19 pneumonia: single-center experience from Wuhan, China. Cold Spring Harbor Laboratory Press. [113] Wu C, Chen X, Cai Y, Xia J, Zhou X, Xu S, et al. (2020). Risk Factors Associated With Acute Respiratory Distress Syndrome and Death in Patients With Coronavirus Disease 2019 Pneumonia in Wuhan, China. *JAMA Intern Med*, 180:934-943.
33. Gianfrancesco M, Hyrich KL, Al-Adely S, Carmona L, Danila MI, Gossec L, et al. (2020). Characteristics associated with hospitalisation for COVID-19 in people with rheumatic disease: data from the COVID-19 Global Rheumatology Alliance physician-reported registry. *Ann Rheum Dis*, 79:859-866.
34. Tang J (2022). COVID-19 Pandemic and Osteoporosis in Elderly Patients. *Aging Dis*, 13:960-969.
35. Favalli EG, Bugatti S, Klersy C, Biggioggero M, Rossi S, De Lucia O, et al. (2020). Impact of corticosteroids and immunosuppressive therapies on symptomatic SARS-CoV-2 infection in a large cohort of patients with chronic inflammatory arthritis. *Arthritis Res Ther*, 22:290-301.
36. Singh JA, Cameron C, Noorbaloochi S, Cullis T, Tucker M, Christensen R, et al. (2015). Risk of serious infection in biological treatment of patients with rheumatoid arthritis: a systematic review and meta-analysis. *Lancet*, 386:258-265.
37. Jie Xiao^{1,2#}, Chaoyi Liang^{1,2#}, Lizeai Zhang^{2#}, Jinling Li^{2,3*}, Sijia Liu^{1,2*}. The Intersection of COVID-19 and Rheumatoid Arthritis: Shared Mechanisms, Treatment Challenges, and Potential Therapeutic Approaches. *Aging and Disease*, Volume 14, Number 4; 1196-1213, August 2023
38. Schett G, Manger B, Simon D, Caporali R. COVID-19 revisiting inflammatory pathways of arthritis. *Nat Rev Rheumatol*. 2020;16(8):465-470. doi: 10.1038/s41584-020-0451-z

МЕДИЦИНА, ПЕДАГОГИКА И ТЕХНОЛОГИЯ: ТЕОРИЯ И ПРАКТИКА

Том 1, Выпуск 4, 31 Декабря

LEARNING THE FUNDAMENTALS OF ANTISEPTIC AND ASEPTIC

Xushvaqto'v Ilyos Shodiqul o'g'li

ilyosbekxushvaqto'v1@gmail.com

Toshkent tibbiyot akademiyasi Termiz filiali talabasi

Tugalboyev Doniyor Abdurasulovich

doniyortugolboev@gmail.com

Toshkent tibbiyot akademiyasi Termiz filiali talabasi

Xursandov Husniddin Yusubali o'g'li

husniddinxursanov0@gmail.com

Toshkent tibbiyot akademiyasi Termiz filiali talabasi

ANNOTATION

Infection is still one of the most frequent causes of morbidity and mortality following surgery. In the era of multi-resistant organisms it is essential that all surgeons have a clear understanding of the techniques used to prevent surgical infections. This article outlines the factors which contribute to infections in surgical practice and details of some of the techniques employed to decrease their incidence.

Antiseptic and aseptic techniques play a key role in the reduction of surgical infection. Patient, surgeon and environmental factors all contribute to surgical-site infections (SSIs).

Key words: antiseptics; aseptic technique; skin preps; surgical site infections.

INTRODUCTION

The terms antiseptics and asepsis are used widely but misunderstood frequently. Antiseptics derived from the Greek “against putrefaction” and its use in modern medicine is most frequently linked to the work of Lister. It refers to the use of solutions for disinfection. Asepsis is defined as the absence of infectious organisms. Aseptic techniques are those aimed at the elimination of all infectious micro-organisms during procedures.

In addition to using standard precautions and transmission-based precautions, aseptic technique (also called medical asepsis) is the purposeful reduction of pathogens to prevent the transfer of microorganisms from one person or object to another during a medical procedure. For example, a nurse administering parenteral medication or performing urinary catheterization uses aseptic technique. When performed properly, aseptic technique prevents contamination and transfer of pathogens to the patient from caregiver hands, surfaces, and equipment during routine care or procedures. The word “aseptic” literally means an absence of disease-

МЕДИЦИНА, ПЕДАГОГИКА И ТЕХНОЛОГИЯ: ТЕОРИЯ И ПРАКТИКА

Том 1, Выпуск 4, 31 Декабря

causing microbes and pathogens. In the clinical setting, aseptic technique refers to the purposeful prevention of microbe contamination from one person or object to another. These potentially infectious, microscopic organisms can be present in the environment, on an instrument, in liquids, on skin surfaces, or within a wound.

There is often misunderstanding between the terms aseptic technique and sterile technique in the health care setting. Both asepsis and sterility are closely related, and the shared concept between the two terms is removal of harmful microorganisms that can cause infection. In the most simplistic terms, asepsis is creating a protective barrier from pathogens, whereas sterile technique is a purposeful attack on microorganisms. Sterile technique (also called surgical asepsis) seeks to eliminate every potential microorganism in and around a sterile field while also maintaining objects as free from microorganisms as possible. It is the standard of care for surgical procedures, invasive wound management, and central line care. Sterile technique requires a combination of meticulous hand washing, creation of a sterile field, using long-lasting antimicrobial cleansing agents such as betadine, donning sterile gloves, and using sterile devices and instruments.

Aseptic technique at home. While your home isn't likely a surgery center, there may be a time when you or a loved one need aseptic technique. For example, you may need to change a dressing on a wound, and that requires a sterile dressing.

Note: Proper aseptic techniques require training. Before you need to change the dressing at home, a healthcare specialist should demonstrate the techniques and have you practice them. To change a sterile dressing, a person needs sterile gloves and a special dressing change kit or supplies.

Aseptic technique benefits. Whenever your skin is opened, you're vulnerable to infection. That's why it's critical for you to get prompt treatment for burns and wounds. Even intentional cuts during surgery put you at risk for infection. The way healthcare providers use aseptic techniques before, during, and after your procedure help protect you from infection.

When you need surgery or other procedures that require aseptic technique, you're already vulnerable to infections. You need your immune system to be at its strongest to heal. You have a better chance of a recovery if you don't have to fight off an infection.

Aseptic technique complications. Healthcare workers try to minimize several common kinds of healthcare-associated infections (HAIs) by using aseptic techniques. These include:

- CAUTIs (pronounced caught-EASE)

МЕДИЦИНА, ПЕДАГОГИКА И ТЕХНОЛОГИЯ: ТЕОРИЯ И ПРАКТИКА

Том 1, Выпуск 4, 31 Декабря

- central line-associated bloodstream infections (CLABSIs, pronounced clab-SEES)
- surgical site infections

Each of these infections represents a major healthcare concern. Medical facilities are required to report their infection rates to the federal government. If their rates are too high, the facility can face disciplinary action.

REFERENCE

1. Tashboltayevna A. S. et al. LEISHMANIOSIS DISEASE, ITS SYMPTOMS, PRIMARY CONSEQUENCES AND DISTRIBUTION //Galaxy International Interdisciplinary Research Journal. – 2022. – Т. 10. – №. 12. – С. 836-838.

2. Tashboltayevna A. S. et al. LEISHMANIOSIS DISEASE, ITS SYMPTOMS, PRIMARY CONSEQUENCES AND DISTRIBUTION //Galaxy International Interdisciplinary Research Journal. – 2022. – Т. 10. – №. 12. – С. 836-838.

3. Toshboltayevna A. S., Mirzaali o'g'li A. J., Bahromjon o'g'li F. N. SIFILIS (ZAXM) KASALLIGI, UNING ALOMATLARI VA BIRLAMCHI OQIBATLARI //PEDAGOGICAL SCIENCES AND TEACHING METHODS. – 2022. – Т. 2. – №. 17. – С. 153-155.

4. Turdimurodov B. et al. TIBBIYOTDA KOMPYUTER TEXNOLOGIYALARI: ALOQA TARIXI, AHAMIYATI VA ISTIQBOLLARI //Theoretical aspects in the formation of pedagogical sciences. – 2023. – Т. 2. – №. 7. – С. 140-146.

5. Asfandiyorov J. et al. O 'ZBEKISTONDA SURUNKALI KASALLIKLAR //Академические исследования в современной науке. – 2022. – Т. 1. – №. 17. – С. 118-121.

6. Асфандиёров Ж. М. и др. СОСТОЯНИМ (МОРДОЛОГИЯ) ЖЕЛЕЬНИХ ПУЗУРЯ, ДЕЛЬНЫХ СФИНИ ТЕРОВ ПРИ ВЫСОНОЙ НИШЕЧНАЙ НЕПРОХОДИМОСТ В ДУОДЕНАЛЬНОМ ПЕРЕХОДУ //International Bulletin of Medical Sciences and Clinical Research. – 2023. – Т. 3. – №. 4. – С. 50-52.

7. Asfandiyorov J. et al. QON. QONNING SHAKLLI ELEMENTLARI. ERITROTSITLAR. ERITROTSITLARNING ORGANIZMDAGI AHAMIYATI HAMDA ERITROTSITLARGA BOG'LIQ BO'LGAN KASALLIKLAR //Models and methods in modern science. – 2022. – Т. 1. – №. 15. – С. 132-135.

МЕДИЦИНА, ПЕДАГОГИКА И ТЕХНОЛОГИЯ: ТЕОРИЯ И ПРАКТИКА

Том 1, Выпуск 4, 31 Декабря

8. Asfandiyorov J. et al. Jigar immuniteti va uning inson sog 'lig 'i uchun ahamiyati //Solution of social problems in management and economy. – 2022. – Т. 1. – №. 4. – С. 17-19.
9. Mirzaali o'g'li A. J. et al. TERMINAL CASES LUNG AND HEART RESUSCITATION TRANSFER PRINCIPLES //Galaxy International Interdisciplinary Research Journal. – 2022. – Т. 10. – №. 10. – С. 729-731.
10. Mirzaali o'g'li A. J. et al. ANESTHESIA AND ITS GENERAL CHARACTERISTICS //Gospodarka i Innowacje. – 2022. – Т. 28. – С. 191-192.

МЕДИЦИНА, ПЕДАГОГИКА И ТЕХНОЛОГИЯ:
ТЕОРИЯ И ПРАКТИКА

ISSN: 3030-3001

Том 1, Выпуск 4, 31 Декабрь

МЕДИЦИНА, ПЕДАГОГИКА И ТЕХНОЛОГИЯ: ТЕОРИЯ И
ПРАКТИКА ТОМ-1, ВЫПУСК-4 (31 ДЕКАБРЬ)

ОГЛАВЛЕНИЕ

1	LINGUISTIC ASPECTS OF THE TRANSLATION OF MEMOIRS IN THE EXAMPLE OF JAMES DAVID VANCE'S "A MEMOIR OF A FAMILY AND CULTURE IN CRISIS" Aliqulova Mahfuzaxon Xurram qizi	5-7
2	SURXONDARYO VILOYATI ATMOSFERA HAVOSINING RADON-222 BILAN ZARARLANISHINI RADIOEKOLOGIK BAHOLASH Hayitova Shaxnoza Inoyatullayevna, Abdumuratova Zarina Shokir qizi	8-10
3	Word formation: shortening, clipping, blending, graphical abbreviations Teshaboyeva Nafisa Zubaydulla qizi, Davletova Charosxon Muhammad qizi	11-16
4	BOSHLANG'ICH ONA TILI VA INGLIZ TILI DARSLARI BILAN INTEGRATSIYALASH YO'LLARI Kurbonova Madina Safar qizi	17-19
5	РОЛЬ ПНЕВМОЦИСТНОЙ ИНФЕКЦИИ НА ТЕЧЕНИЕ ВНЕБОЛЬНИЧНОЙ ПНЕВМОНИИ У ДЕТЕЙ РАННЕГО ВОЗРАСТА Шамсиева Э.Р.	20-22
6	CURRENT CHALLENGES IN THE ADVANCEMENT OF PARALYMPIC SPORTS. N.A. Khonturaev	23-25
7	LAYHYRUS SATIVUS L. TURIGA MANSUB XORIJIY NAMUNALARINING PISHISH BOSQICHIDA KUZATILGAN UMUMIY BIOMASSA TAHLILI Qodirova Saodat Saidmurodovna	26-29
8	TYPES OF CLOUD TECHNOLOGY Sadritdinova Dinora Azamjon qizi	30-32
9	Global problems of modern society and prospects for the development of society. Ròziboyeva Maftuna, Maxmaraimova Parvina, Toğaymurodova Aziza, Raxmonova Madina	33-37
10	O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI VA BUYUK BRITANIYA XALQARO MUNOSABATLAR TARIXI. Toshboyeva Farangiz	38-40
11	Eng yangi davrda Janubiy Koreya davlati va uning O'zbekiston bilan aloqalari. Axtamova Xurshida Jamshid qizi	41-45
12	XIX ASR OXIRI - XX ASR BOSHLARIDA HINDISTONDAGI IJTIMOIYSIYOSIY VAZIYAT Jumaboyeva Nilufar	46-50
13	LINDEN TREE Zuhraxon Akramova Murodjon qizi	51-52
14	ORGANIZING THE MOVEMENT OF PUBLIC TRANSPORTATION ON CITY ROADS Musulmonov Q, Jolg'oshov Jaloliddin Jasurbek o'g'li, Saidov Abdukarim Abdurahim o'g'li	53-56
15	КЛИНИКО-ИММУНОЛОГИЧЕСКАЯ ХАРАКТЕРИСТИКА ВНЕБОЛЬНИЧНОЙ ПНЕВМОНИИ У ДЕТЕЙ С СЕРДЕЧНОЙ НЕДОСТАТОЧНОСТЬЮ И ОПТИМИЗАЦИЯ МЕТОДОВ РЕАБИЛИТАЦИИ. Исмагуллаев Сохибджон Кудратович	57-60
16	DIABETES DURING PREGNANCY. Khidirov I. B, Mamashayev E. E, Safarov Z. O	61-63
17	Podstansiyalarda zaxirani avtomatik ulash(ZAU) qurilmalari. Mamatqulov T.CH, Salohiddinov J.A, Karabayev I.T, Samatov J.S	64-69

**МЕДИЦИНА, ПЕДАГОГИКА И ТЕХНОЛОГИЯ:
ТЕОРИЯ И ПРАКТИКА**

ISSN: 3030-3001

Том 1, Выпуск 4, 31 Декабрь

18	COVID-19 O'TKAZGAN REVMATOID ARTRITLI BEMORLARNI DAVOLASH. Sharapov Zafar Abdunayemovich	70-78
19	LEARNING THE FUNDAMENTALS OF ANTISEPTIC AND ASEPTIC Xushvaqtoy Ilyos Shodiqul o'g'li, Tugalboyev Doniyor Abdurasulovich, Xursandov Husniddin Yusubali o'g'li	79-82
	ОГЛАВЛЕНИЕ	83-84